

**RIJIK (CAMELINA) EKININI AYRIM QIMMATLI XO‘JALIK BELGILARI
BO‘YICHA O‘RGANISH**

S.G‘.Jamolov-bo‘lim boshlig‘i,

B.D.Allashov-ilmiy ishlar bo‘yicha direktor o‘rinbosari, q.x.f.n., K.I.X.
Chorvachilik va parrandachilik ilmiy tadqiqot instituti, allashev-b@mail.ru

Annotasiya. Keyingi yillarda anomal issiq, suv tanqisligi kabi muammolar yuzaga kelmoqda. Bunday sharoitlarda ekib yetishtirib kelinayotgan ozuqabop ekin turlari va navlari potensial hosildorligi kamayib ketadi, har bir gektar yerdan yetishtirib olinadigan ozuqa birligi kamayib ketadi. Bu o‘z navbatida chorva mollari ozuqa bazasini mustahkamlashda o‘zining salbiy ta‘sirini ko‘rsatadi. Bunday muammolar yechimida issiqqa, suv tanqisligiga bardoshli bo‘lgan ozuqabop ekin turlari va navlarini sinash, seleksiya ishlarini olib borish, qimmatli xo‘jalik belgilari bo‘yicha o‘rganish, yaxshi ko‘rsatkichlarga ega bo‘lganlarni tanlash va ularda keyinchalik ilmiy asosda birlamchi urug‘chilik ishlarini yo‘lga qo‘yish muhim ahamiyatga ega vazifalardan hisoblanadi. Ushbu maqolada rijik ekinini ayrim qimmatli xo‘jalik belgilarini o‘rganish natijalari keltirilgan.

Kalit so‘zlar: chorvachilik, ozuqabop ekinlar, ozuqa bazasi, rijik, nav, tanlash, qimmatli xo‘jalik belgilar.

Summary. In recent years, problems such as heat waves and water shortages have arisen. Under such conditions, the potential productivity of cultivated species and varieties of forage crops decreases, and the number of fodder units grown per hectare of land decreases. This, in turn, negatively affects the strengthening of the livestock feed supply. When solving such similar problems, it is important to test types and varieties of forage crops that are resistant to heat and water deficiency, carry out breeding work, study valuable economic traits, select those that have good performance, and then begin primary seed production on a scientific basis. This article presents the results of a study of valuable economic traits of the camelina culture.

Key words: Animal husbandry, forage crops, forage base, camelina, variety, breeding, selection, economically valuable traits.

Kirish. Keyingi yillarda anomal issiq, suv tanqisligi kabi muammolar yuzaga kelmoqda. Bunday sharoitlarda ekib yetishtirib kelinayotgan ozuqabop ekin turlari va navlari potensial hosildorligi kamayib ketadi, har bir gektar yerdan yetishtirib olinadigan ozuqa birligi kamayib ketadi. Bu o‘z navbatida chorva mollari ozuqa bazasini mustahkamlashda o‘zining salbiy ta‘sirini ko‘rsatadi. Bunday muammolar yechimida issiqqa, suv tanqisligiga bardoshli bo‘lgan ozuqabop ekin turlari va navlarini sinash, seleksiya ishlarini olib borish, qimmatli xo‘jalik belgilari bo‘yicha o‘rganish, yaxshi ko‘rsatkichlarga ega bo‘lganlarni tanlash va ularda keyinchalik ilmiy asosda birlamchi urug‘chilik ishlarini yo‘lga qo‘yish muhim ahamiyatga ega vazifalardan hisoblanadi.

Urug‘lari Erondan keltirilgan issiqqa va suv tanqisligiga bardoshli bo‘lgan rijik ekinini sinash, qimmatli xo‘jalik belgilari bo‘yicha o‘rganish yuqorida keltirilgan muammolar yechimida dolzarb hisoblanadi. Mutaxassislar keyingi yillarda yer yuzida cho‘llanish darajasi ortib borayotganini, suv resurslarini yanada samarali boshqarish zarurligini ta‘kidlamoqda. Dunyo aholisining qariyb uchdan bir qismi – 2,3 milliardga yaqin kishi suv tanqisligi bo‘lgan mamlakatlarda, 10 foizi yoki 733 million kishi suv tanqisligi keskin bo‘lgan mamlakatlarda yashaydi. FAO hisobotida global isish qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarish tizimlarini suv bilan ta‘minlashga salbiy ta‘sir ko‘rsatmoqda, deyiladi.

Suv bilan kam ta‘minlangan maydonlarga qurg‘oqchilikka o‘ta chidamli bo‘lgan oziq-ovqat ekinlarini tanlash va uni ekin maydonini kengaytirish maqsadga muvofiqdir. Ana shunday

ekinlardan biri – rijik o‘simligidir. Rijik - Karamdoshlar oilasiga mansub bir yillik o‘tsimon o‘simlik. O‘simlikning ikkinchi nomi - Camelina. Bu o‘simlik oddiy, qurg‘oqchilik va issiqlikka chidamli, zamburug‘ kasalliklariga moyil emas, har xil iqlim sharoitiga va tuproq tarkibiga osongina moslashadi. Rijik, bu yangi qishloq xo‘jaligi ekinlaridan biri bo‘lib, uning so‘nggi yillarda yuqori mashhurligi uning qurg‘oqchilikka chidamliligi va yuqori sifatli moy olish imkoniyati bilan bog‘liq. Darhaqiqat, rijik yetishtirish juda foydali, lekin faqat to‘g‘ri yondashuv va bu hosilni yetishtirish uchun zamonaviy texnologiyaning barcha talablariga rioya qilish bilan. Rijik (Camelina sativa), eng qurg‘oqchilikka chidamli va shuning uchun qishloq xo‘jaligi ekinlari bozorini eng dinamik egallaganlardan biri bo‘lib, yuqori sifatli rijik urug‘iga talab yuqori, shuning uchun yer yuzida bu ekinning yetishtiriladigan maydoni yildan yilga ortib bormoqda. Shuning uchun rijikni qanday qilib to‘g‘ri yetishtirishni bilish amaliy jihatdan muhimdir, chunki har doim yuqori sifatli rijik urug‘iga talab mavjud. Odatda kamelina, zavqli oltin yoki soxta zig‘ir deb ham nomlanadi, lekin ba’zida yovvoyi zig‘ir, zig‘ir urug‘i, nemis kunjuti yoki Sibir moyli o‘simlik sifatida ham tanilgan.

Tadqiqot maqsadi. Urug‘lari Erondan keltirilgan rijik ekinini kuzgi va bahorgi muddatlarda ekib o‘rganish. Ularni ayrim qimmatli xo‘jalik belgilari bo‘yicha tahlil qilish.

Tadqiqot usullari. Tajribalar “Don va dukkakli ekinlardan elita va superelita urug‘larini olish” (1982), uslubi asosida amalga oshirildi.

Tadqiqot natijalari. Ushbu ekinning kuzgi va bahorgi shakllari mavjud. Mavjud namuna urug‘lari qaysi shaklga mansubligini aniqlash va ekib o‘rganish maqsadida institut tajriba dalasida quyidagi ishlar amalga oshirildi.

Kuzgi muddatda ekib o‘rganish uchun 2022 yilning 26-oktyabr kuni yer tayyorlash ishlariga kirishildi. 27-oktyabr kuni yer ekishga tayyorlandi. 28-oktyabr kuni ekish ishlari amalga oshirildi. Ekishda qator oralig‘i 70 sm qilib sochma usulda ekildi. 29-oktyabr kuni sug‘orildi. 5-6 noyabr kuni unib chiqish boshlandi, 10 –noyabrga kelib ya’ni 12 kunda to‘liq undirib olindi. 20-noyabrga kelib chinbarg chiqara boshlandi. Shu bilan ekinlar qishlovga ketdi. Bahorda ekinlar to‘liq rivojlanishda davom etdi. Mart oyining boshida ya’ni 2023 yilning 5-mart sanasida naychalash, ya’ni boshpoya chiqarish fazasi boshlandi. May oyining oxiriga kelib, ya’ni 3-aprel sanasidan gullash fazasi boshlandi. Iyun oyi oxirida pishish boshlandi, 25-iyun kuni to‘liq pishib yetildi.

Bahorgi muddatda ekib o‘rganish uchun 2023 yilning 9-mart kuni yer tayyorlash ishlariga kirishildi. 10-mart kuni yer ekishga tayyorlandi. 10-mart kuni ekish ishlari amalga oshirildi. Ekishda qator oralig‘i 70 sm qilib sochma usulda ekildi. 13-mart kuni sug‘orildi. 23-mart kuni unib chiqish boshlandi, 25 –martga kelib ya’ni 15 kunda to‘liq undirib olindi. 5-aprelga kelib chinbarg chiqara boshladi. May oyining boshida ya’ni 2023 yilning 1-may sanasida naychalash, ya’ni boshpoya chiqarish fazasi boshlandi. Iyun oyining 1-sanasidan gullash fazasi boshlandi. Iyul oyining 7-sanasida urug‘lari to‘liq pishib yetildi.

Kuzgi va bahorgi muddatlarda ekilgan rijik ekini boshpoya balandligi va pichan hosildorligi kabi qimmatli xo‘jalik belgilari bo‘yicha o‘rganildi. Boshpoya balandligini o‘rganish maqsadida har bir qatordan 50 tadan jami 100 ta o‘simlik boshpoya balandligi o‘lchab chiqildi. Kuzgi muddatda ekilgan rijik ekini boshpoya balandligi ko‘rsatkichlari quyidagi 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

Kuzgi muddatda ekilgan rijik ekini boshpoya badandligi bo‘yicha ko‘rsatkichlari

Ekin turi	k=5 sm			n	$X \pm S_x$	Cv %
	65-70	76-80	81-85			
Rijik	10	76	14	100	77,6 $\pm$ 0,3	3,6

Kuzgi muddatda ekilgan rijik ekini boshpoya balandliklari o‘lchab chiqilganda o‘simliklar boshpoya balandligi 65 sm dan 85 sm gacha bo‘lganligi kuzatildi. Boshpoya balandligi bo‘yicha o‘rtacha ko‘rsatkich 77,6 sm ni tashkil etdi.

Bahorgi muddatda ekilgan rijik ekini boshpoya balandligi ham o'rganildi. Bunda ham har bir qatordan 50 tadan jami 100 ta o'simliklar boshpoya balandliklari o'lchab chiqildi va undan olingan natijalar quyidagi 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadval

Bahorgi muddatda ekilgan rijik ekini boshpoya badandligi bo'yicha ko'rsatkichlari

Ekin turi	k=5 sm			n	X±Sx	Cv %
	65-70	76-80	81-85			
Rijik	67	25	8	100	70,0±0,3	4,5

Jadval ma'lumotlaridan ko'rishimiz mumkinki bahorgi muddatda ekilgan rijik ekini boshpoya balandligi bo'yicha o'lchab chiqilganda bunda ham o'simliklar boshpoya balandligi 65 sm dan 85 sm gacha oraliqda bo'ldi. Bahorgi muddatda ekilgan rijik ekinida boshpoya balandligi bo'yicha o'rtacha ko'rsatkich 70,0 sm bo'lganligi kuzatildi.

Shuningdek, kuzgi va bahorgi muddatlarda ekilgan rijik ekini pichan hosildorligi bo'yicha ham o'rganildi.

Pichan hosildorligini o'rganishda har bir qatordan 2 ta, jami 4 ta namuna olib o'rganildi. Bunda har bir namuna 1 pogonometr joydan, ya'ni 1,43 m joydan o'rib olinib tarozida tortish orqali aniqlandi. Kuzgi muddatda ekilgan rijik ekini pichan hosildorligi bo'yicha o'rganish natijalari quyida 3-jadvalda keltirilgan.

Namunalar bo'yicha pichan hosildorligi ko'rsatkichlari 21 s/ga dan 30 s/ga gacha oraliqda bo'lganligi, o'rtacha ko'rsatkich esa 26,0 s/ga tashkil etganligi kuzatildi.

3-jadval

Kuzgi muddatda ekilgan rijik ekini pichan hosildorligi bo'yicha ko'rsatkichlari (s/ga)

Ekin turi	1-namuna	2-namuna	3-namuna	4-namuna	Jami	O'rtacha
Rijik	26	30	27	21	104	26

Pichan hosildorligi bo'yicha bahorgi muddatda ekilgan rijik ekini ham o'rganidi. Bunda ham xuddi oldingidek, har bir qatordan 2 tadan jami 4 ta namuna o'rganildi. Bundan olingan natijalar quyidagi 4-jadvalda keltirilgan.

4-jadval

Bahorgi muddatda ekilgan rijik ekini pichan hosildorligi bo'yicha ko'rsatkichlari (s/ga)

Ekin turi	1-namuna	2-namuna	3-namuna	4-namuna	Jami	O'rtacha
Rijik	22	18	17	19	76	19

Bahorgi muddatda ekilgan rijik ekini pichan hosildorligi bo'yicha o'rganilganda namunalarda hosildorlik ko'rsatkichlari 17 s/ga dan 22 s/ga gacha bo'lganligi, o'rtacha ko'rsatkich esa 19,0 s/ga ni tashkil etganligi kuzatildi.

Xulosa. Rijik ekini kuzgi muddatda ekilgandaboshpoya balandligi 77,6 sm, bahorda ekilganda 70 sm, pichan hosildorligi ham tegishli tartibda 26 s/ga, hamda 19 s/ga bo'ldi. Bundan xulosa qilish mumkinki, rijik ekinini kuzgi muddatda ekish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Буянкин, В. И. Рыжик масличный (CamelinaSP.)/ В. И. Буянкин, Т. Я. Прахова. — Волгоград: ООО «СФЕРА», 2016. — 116 с.
2. Вавилов П.П., Гриценко В.В., Кузнецов В.С. и др.; Растениеводство/Под ред. П.П. Вавилова. — 5-е изд., перераб. и доп. — М.: Агропромиздат, 1986. — 512 с.: ил. — (Учебник и учеб. пособия для высш. учеб. заведений).
3. Зубков В.В. Рекомендации по возделыванию перспективной масличной культуры рыжика посевного / Зубков В.В., Терентьев О.В., Буянкин В.И.. - Самара: Самара-АРИС, 2014. — 16 с.
4. Коломейченко В.В. Растениеводство/Учебник. — М.: Агробизнесцентр, 2007. — 600 с. ISBN 978-5-902792-11-6.